

TALIM-TARBIYA JARAYONINI TASHXISLASHNI XUSUSIYATLARI**Bo'ranbaeva Shoira Rustamovna**

Buxoro innovatsiyalar instituti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10725267>

Annotatsiya: Pedagogik diagnostika tushunchasi pedagogika sohasidagi barcha jarayon va muammolarni yoritilishini, o'zlashtirishni va o'quv jarayoni samaradorligini o'lchashni, ta'lim olish sohasidagi har bir kishining imkoniyatlarini aniqlash choralarini, ayniqsa, maktab ta'limi tizimida xohlagan kasbni va ta'limning uchinchi bosqichini tanlash choralarini nazarda tutadi

Kalit so'zlar: talim-tarbiya, pedagogik diagnostika, jarayon, muammo, o'zlashtirish, samaradorlik, o'lchash, ta'lim olish, tashxislash, individual, sifatleri.

Bugungi kunda butun dunyoda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar tobora jadallashib bormoqda. Negaki, jamiyat rivoji va istiqboli ko'p jihatdan kadrlarga bog'liq ekan, albatta bunda ta'lim asosiy rol o'ynashini e'tiborga olish lozimligini anglashga intilish tendentsiyasi kuchaydi. Shu jihatdan olib qaralganda ta'lim sifati va natijadorligiga erishish muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning falsafiy mohiyatini anglash bo'yicha turli xil yondashuvlar keyingi o'n yilliklarda faollashayotganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, kognitiv tahlil etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'p uchraydi.

Barkamol shaxs tarbiyasida ijtimoiy va kasbiy zarur fazilatlarni shakllantirishning ahamiyati kattadir. Xalqimizda azal-azaldan insonda yaxshi axloqni shakllantirishga katta e'tibor qaratilib, axloqli kishilar hamisha ulug'lanib kelingan. Shaxsda ijtimoiy-kasbiy fazilatlarni shakllantirish ijtimoiy faoliyat jarayonida sodir bo'lib, bunda shaxsning o'zgarishi - shakllanish va rivojlanishi jadal sur'atlar bilan boradi, tarbiyaviy jarayon sub'ektining faol ta'sirini tarbiyaviy ta'sir ob'ekti o'zida jamlashtirishga intiladi. Shu sababli ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlar bilan uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish va tashkil qilishga majmuaviy yondashish, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim va tarbiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zamon talabi bo'lib qo'lmoqda.

Shaxsning mavaffaqiyatli ijtimoiylashuvi unda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllanganligiga bog'liq bo'lib, bu fazilatlarning rivojlanish jarayonini o'ziga hos bir usullar yordamida "o'lchab" borish pedagogikada muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli amalga oshirish uchun o'quvchi shaxsida sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlari pedagog

tomonidan diagnostika qilib borilishi undagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarlarning shakllanish va rivojlanish jarayoniga maqsadli pedagogik ta'sir qilish orqali rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishishni ta'minlaydi.

Shaxsda ma'naviy-axloqiy hislatlarni tarbiyalanganlik darajasini aniqlash nihoyatda murakkab muammo bo'lib, pedagogika fanida hanuzgacha o'zining to'liq yechimini topmagan. O'quvchi-yoshlarning tarbiyalanganligini "o'lchash" maqsadida mezonlarni aniqlashga pedagogika fani endigina yaqinlashib kelmoqda. Hozirgi kunda shaxsning tarbiyalanganlik darajasini o'rganish, olingan natijalarni aniqlash hamda tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar aniq natijalar olishga hamda bu muammo yuzasidan uzil-kesil hulosalar chiqarishga to'liq imkon bermayapti.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish va shaxsiy faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik diagnostika imkoniyatlarida juda unumli foydalanish mumkin. Pedagogik diagnostika natijalariga asoslanib ta'lim oluvchilarning ta'lim- tarbiyasidagi muammolarni aniqlashda, ularning shaxsiy hislatlari, ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarining shakllanganlik darajalarini muayyan miqdorlarda o'lchash va baholashda, ta'lim-tarbiya tadbirlarining maqsad va yo'nalishlarini belgilashda aniq va maqsadli foydalanish mumkin,

Diagnostika so'zi (yunon. «dia» - shaffof va «gnosis» - bilim) - o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayonga oid kutilayotgan ma'lumotni oldindan olishning umumiy yo'llari ma'nosini beradi. Diagnostika (tashxis) deganda organizmning, mashinaning yoki har qanday murakkab tizimning ishlashini o'rganishga aytiladi.

"Pedagogik diagnostika" atamasi ilk bor 1968 yili nemis olimi Karlxayns Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi. Klauer (Germaniya), B.Burk, Rollet (Angliya), S.D.Smimova, I.V.Dubrovina (Rossiya) va boshqa bir qator olimlarning "pedagogik diagnostika"ning "psixologik diagnostika" zahirida tug'ilganligini ta'kidlashlari, albatta, o'rinsiz. Bir paytlari psixologik diagnostika biologiya va tibbiyotning tashxis modellarini andoza qilib olgani kabi pedagogik diagnostika ham zarur bo'lganda psixologik ilmiy-tadqiqot metodlardan o'z o'rnida foydalandi. Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tashxislashga turli qarashlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu pedagog shaxsining diagnostikasi 'zini - o'zi tashxislash, ota-onalar, pedagoglar tomonidan o'quvchilar jamoasini tashxislash; ma'muriyat, mutasaddi mutaxassislar va ta'lim bo'limlari uslubchilari tomonidan o'quv dargohining faoliyatini tashxislash va hokazolar bo'lishi mumkin.

Pedagogik diagnostika - pedagogik faoliyatni optimallashtirishda,



qulaylashtirishda zarur bo'lgan axborotni qo'lga kiritish jarayonidir (G.Royleke, R.Rollet, K.Leongard, A.Bass, A.E.Lichko, A.Shmelev).

X.Feger, N.Petillon, V.Bogatskiylar pedagogik diagnostikani psixologik diagnostikadan ajralib chiqqan, degan fikmi ilgari surganlar.

Ya.Yirasek, A.Kern yoshlarning bilim olishga moyilliklarini aniqTbvchi yo'naltiruvchi tcstlari, D.B.Elkoninning "Grafik diktan'fi, A.L.Vengerning "Nuqtalar bo'yicha chizish", I.Shvansarning "Aqliy rivojlanishni diagnostika qilish", V.V.Xolmovskayaning "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilaming qobiliyatlarini tashxislash" kabi metodikalari mashhurdir.

Germaniyaning "Ta'limni rivojlanlirisli yagona rejasi"da shunday deyiladi: "Pedagogik diagnostika tushunchasi pedagogika sohasidagi barcha jarayon va muammolami yoritilishini, o'zlashtirishni va o'quv jarayoni samaradorligini o'lchashni, ta'lim olish sohasidagi har bir kishining imkoniyatlarini aniqlash choralari, ayniqsa, maktab ta'limi tizimida xohlagan kasbni va ta'limning uchinchi bosqichini tanlash choralari nazarda tutadi".

Bu erda asosiy e'tibor kasb tanlashga yordam berishga qaratilgan. Nemis olimi Mauermanning yozishicha: "Pedagogik diagnostika 'ozlashtirish va o'quv jarayoniga tayyorgarlik o'rtasida aloqa o'rnatadi, o'quv jarayonida kechadigan o'quv maqsadini to'g'ri belgilaydi va o'quv - tashkiliy shakllami sharoitga mosligini baholaydi".

K.Klauer pedagogik diagnostikaga ta'rif bergan bir qator olimlami tanqid ostiga olib, shunday fikrlami bildiradi: "Pedagogik diagnostika (tashxislash) vazifalarini klassifikatsiyalash (turkumlash)ni bir vaqtning ozida amalga oshirishi mushkul, shu sababli u pedagogik diagnostika atamasining mohiyatini belgilamasligi kerak. Pedagogik diagnostika dolzarb pedagogik qarorlami, hukmlami chiqarilishga bolgan urinishlar majmuidan iborat".

Rus olimi VU.Zverey: "Pedagogik diagnostika - bu turli pedagogik vaziyatlanu organish, aniqlash, ta'lim tizimi qatnashchilarining xilma-xil qobiliyatlari darajasini bilishdan iborat jarayon", - degan fikmi ilgari suradi.

Boshqa rus olimasi L.Denyakin: "Pedagogik diagnostika - bu pedagogning o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashxislashda individual- malakaviy sifatlarini belgilovchi, shaxsning ijodiy taraqqiy topishida ko'makchi, pedagogik jamoaning muvaffaqiyatini oshiruvchi faoliyatdir" - deb yozadi.

"Pedagogik diagnostika o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, mazmunini boyitish va attestattsiya uchun qo'llaniladi", - deb hisoblaydi Moreno

Pedagogik diagnostikaning mazmuni - ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini, o'quvchilaming ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini



hamda ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlaming shakllanganligini o'rganishni o'z ichiga oladi. Pedagogik diagnostikaning mazmunini uning predmeti ham belgilaydi, ya'ni: tarbiyaning inaqsad. va vazifalari asosida kimni tarbivalash: uni qanday tarbiyaviy vaziyatlarda tarbiyalash; bunday vaziyatlarda kim nima qilishi va qanday vazitalarni bajarishi kerak; pedagog qanday shakl, metod va vositalar orqali o'quvchilarga ta'sir qilishi kerak.

Ko'pchilik diagnostika metodikalarida o'qitish sifati "pedagogik faoliyat samaradorligi mezon" bilan belgilanadi. Bunda uning mazmuni, yo'nalganligi, tarbiyaviy ta'siming sifati nazarda tutiladi. Tadqiqotchilaming fikriga ko'ra, o'quvchilarni bunday diagnostika "qilish etarlicha samara bennas ekan. Chunki o'quvchining tarbiyalanganligi pedagogik faoliyatning eng asosiy ko'rsatkichi bo'lib hizmat qiladi (1)

Demak pedagogik diagnostikaning ob'ekti va asosiy yo'naiishiilanni belgilab olgandan so'ng, shaxsda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlar shakllanganligini baholash mezonlarini aniqlash kerak bo'ladi. Bunday mezonlar sifatida ta'lim muassasasida o'quvchilar bilan olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlar, pedagogik faoliyat, uning qanday sharoitda olib borilayotgani, tarbiyaviy ta'sir uchun tanlangan shakl va metodlar, texnologiyalar va asosiysi, bu ta'sirlar natijasida o'quvchilarning xulq-atvori, qadriyatlar hamda dunyoqarashlarida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar hamda o'qituvchilarning pedagogik maqorati, tarbiyaviy tadbirlaming ta'lim tizimi bilan uzviyligi kabilarni belgilab olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн., кн.3: Теория и технология воспитания: учеб для студ.вузов. -Москва ВЛАДОС, 2007. 67-68-стр;
2. Фридман Л.М., Волков К.Н. Психологическая наука-учителю. -М.: Просвещение, 1985. 12-стр.
3. Given B. Teachingto the brain's natural learning sistems, Alexandria,2002.
4. Podlasiy I.P Pedagogika: v 3-x kn.-Moskva: VLADOS,2007.

